

## TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELIDAGI MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI («XALQ BANKI» ATB MISOLIDA)

**Raxmatullayev Ulug‘bek Raximjonovich**

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

“Bank ishi” yo‘nalishi magistranti.

**E-mail: [rakhmatullayevulugbek003@gmail.com](mailto:rakhmatullayevulugbek003@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20743570>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ATB «Xalq banki» kredit portfelida muammoli kreditlar (NPL - Non-Performing Loans) ulushining 2020–2024-yillardagi dinamikasi, bank moliyaviy barqarorligiga ta’siri hamda ularni kamaytirishning institutsional va raqamli mexanizmlari tadqiq etildi. Tadqiqotda Markaziy bank statistik ma’lumotlari, bank moliyaviy hisobotlari va ilmiy adabiyotlar asosida trend tahlili, CAMELS modeli, qiyosiy tahlil, Basel III va IFRS 9 yondashuvlaridan foydalanildi.

Natijalar 2022-yilda NPL ulushi 19,7 foizga yetib, ROA, CAR, NIM va CIR ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatganini, 2023–2024-yillarda esa sog‘lomlashtirish choralari natijasida NPL ulushi 7,6 foizgacha pasayganini ko‘rsatdi. Maqolada AI-skoring, real vaqt monitoringi, erta ogohlantirish tizimi, portfel diversifikatsiyasi va aktivlarni boshqarish kompaniyasi modeliga asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** tijorat banklari, muammoli kreditlar, NPL, kredit riski, CAMELS modeli, Basel III, IFRS 9, erta ogohlantirish tizimi, raqamli monitoring, moliyaviy barqarorlik, Xalq banki.

## ПУТИ СНИЖЕНИЯ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ В КРЕДИТНОМ ПОРТФЕЛЕ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ (НА ПРИМЕРЕ АКБ «ХАЛК БАНКИ»)

**Аннотация.** В статье исследованы динамика доли проблемных кредитов (NPL - Non-Performing Loans) в кредитном портфеле АКБ «Халк банки» за 2020–2024 годы, их влияние на финансовую устойчивость банка, а также институциональные и цифровые механизмы их сокращения. Методологическую основу исследования составили статистические данные Центрального банка, финансовая отчетность банка, научная литература, трендовый анализ, модель CAMELS, сравнительный анализ, подходы Basel III и IFRS 9.

Результаты показали, что в 2022 году доля NPL достигла 19,7 процента и негативно повлияла на показатели ROA, CAR, NIM и CIR, а в 2023–2024 годах вследствие мер финансового оздоровления снизилась до 7,6 процента. Предложены практические меры, основанные на AI-скоринге, мониторинге в реальном времени, системе раннего предупреждения, диверсификации портфеля и модели компании по управлению проблемными активами.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, проблемные кредиты, NPL, кредитный риск, модель CAMELS, Basel III, IFRS 9, система раннего предупреждения, цифровой мониторинг, финансовая устойчивость, Халк банки.

## WAYS TO REDUCE NON-PERFORMING LOANS IN THE LOAN PORTFOLIO OF COMMERCIAL BANKS (THE CASE OF JSCB “XALQ BANKI”)

**Abstract.** *This article examines the dynamics of non-performing loans (NPLs) in the loan portfolio of JSCB “Xalq Banki” during 2020–2024, their impact on the bank’s financial stability, and institutional and digital mechanisms for reducing them. The study relies on Central Bank statistics, the bank’s financial statements, academic literature, trend analysis, the CAMELS framework, comparative analysis, and the Basel III and IFRS 9 approaches.*

*The findings show that the NPL ratio reached 19.7 percent in 2022 and negatively affected ROA, CAR, NIM and CIR, while recovery measures implemented in 2023–2024 reduced the ratio to 7.6 percent. The article develops practical recommendations based on AI-driven credit scoring, real-time monitoring, an early warning system, loan portfolio diversification, and an asset management company model adapted to the Uzbek banking sector.*

**Keywords:** *commercial banks, non-performing loans, NPL, credit risk, CAMELS model, Basel III, IFRS 9, early warning system, digital monitoring, financial stability, Xalq Banki.*

### KIRISH

Tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining ortishi bank tizimi barqarorligini cheklovchi eng muhim risk omillaridan biridir. NPL darajasining yuqorilashi kreditlardan foiz daromadlari tushishini, zaxiralar hajmi ko‘payishini, kapital yetarliligi pasayishini hamda likvidlik boshqaruvi murakkablashishini keltirib chiqaradi. Shu sababli muammoli kreditlarni erta aniqlash, to‘g‘ri tasniflash va ularni bosqichma-bosqich sog‘lomlashtirish tijorat banklari risk-menejmentining markaziy yo‘nalishi hisoblanadi [1; 5; 10].

O‘zbekiston bank tizimida so‘nggi yillarda kreditlash hajmining kengayishi real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirdi. Biroq kredit portfeli hajmining tez o‘sishi kredit tahlili, monitoring, garov baholash, qarz oluvchining pul oqimini baholash va ichki nazorat mexanizmlariga qo‘yiladigan talablarni ham kuchaytirdi. ATB «Xalq banki» misolida 2022-yilda NPL ulushining keskin oshishi ushbu muammo bank miqyosida emas, balki butun bank tizimi uchun ham ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi [2; 8].

Tadqiqotning maqsadi ATB «Xalq banki» kredit portfelida muammoli kreditlar dinamikasi va ularning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga ta‘sirini baholash, xalqaro standartlar hamda ilg‘or amaliyot asosida NPLni kamaytirish bo‘yicha nashriyot talablariga mos ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, NPL dinamikasini tahlil qilish, CAMELS modelining asosiy komponentlarini baholash, Basel III va IFRS 9 talablarining amaliy ahamiyatini izohlash, xorijiy aktivlarni boshqarish kompaniyalari tajribasini o‘rganish hamda bank uchun bosqichma-bosqich chora-tadbirlar tizimini taklif etish vazifalari belgilandi.

### MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotning axborot bazasini ATB «Xalq banki»ning 2020–2024-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma‘lumotlari, bank risklarini baholashga oid ilmiy adabiyotlar hamda Basel III, IFRS 9 va xalqaro bank nazorati amaliyotiga oid manbalar tashkil etdi [2; 3; 5; 8].

Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi: birinchidan, 2020–2024-yillar bo‘yicha NPL, ROA, CAR, NIM va CIR indikatorlarining trend tahlili amalga oshirildi; ikkinchidan, bank moliyaviy holatini kompleks baholash uchun CAMELS modeli qo‘llandi; uchinchidan, NPLni kamaytirish bo‘yicha xorijiy AMC modellari qiyosiy tahlil qilindi; to‘rtinchidan, kredit portfelini sog‘lomlashtirish bo‘yicha institutsional, texnologik va nazoratga oid chora-tadbirlar sintez qilindi. Tadqiqotda keltirilgan xulosalar mavjud ochiq ma’lumotlarga asoslangan bo‘lib, ma’lumotlar tafovuti yuzaga kelgan holatlarda rasmiy bank va Markaziy bank ma’lumotlariga ustuvorlik berildi.

### 1-jadval

#### Tadqiqot metodologiyasining tarkibiy qismlari

Yo‘nalish	Qo‘llangan metod	Tadqiqotdagi vazifasi
NPL dinamikasi	Trend va qiyosiy tahlil	2020–2024-yillarda muammoli kreditlar ulushidagi o‘zgarishni aniqlash
Moliyaviy barqarorlik	CAMELS modeli	Kapital, aktiv sifati, daromadlilik, likvidlik va boshqaruv samaradorligini baholash
Xalqaro standartlar	Basel III va IFRS 9 tahlili	Kapital buferlari, likvidlik talablari va kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini izohlash
Xorijiy tajriba	Institutsional qiyosiy tahlil	KAMCO, AMCO, NAMA va Xitoy AMC tajribalaridan mos elementlarni ajratish
Amaliy tavsiyalar	Sintez va ekspert yondashuvi	Xalq banki uchun bosqichma-bosqich chora-tadbirlar paketini ishlab chiqish

*Manba:* muallif tomonidan tadqiqot maqsadi va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida tuzildi.

### NATIJALAR

Tahlil natijalari ATB «Xalq banki»da NPL ulushi 2020–2021-yillarda 2,8 foiz darajasida nisbatan barqaror bo‘lganini, 2022-yilda esa 19,7 foizgacha oshganini ko‘rsatdi. Ushbu keskin o‘shish pandemiyadan keyingi imtiyozli davrlarning yakunlanishi, ayrim kreditlar bo‘yicha pul oqimlari yetarlicha baholanmagani, davlat dasturlari doirasidagi kreditlar monitoringida sustlik hamda kredit portfeli hajmi o‘shishiga mos risk-infratuzilma yetarli tezlikda moslashmagani bilan izohlanadi [2; 8].

2023–2024-yillarda olib borilgan sog‘lomlashtirish choralari natijasida NPL ulushi 2023-yilda 11,9 foizga, 2024-yilda 7,6 foizga pasaydi. Biroq bu ko‘rsatkich ehtiyotkor bank amaliyoti uchun maqbul hisoblanadigan 3–5 foizlik diapazondan yuqoriligicha qolmoqda. Demak, bankda kredit tahlili, erta ogohlantirish, qayta tuzilmalash va muammoli aktivlarni alohida boshqarish mexanizmlarini tizimli kuchaytirish zarur.

### 2-jadval

#### ATB «Xalq banki»ning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi (2020–2024-yillar)

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
NPL ulushi, %	2,8	2,8	19,7	11,9	7,6
Aktivlar rentabelligi (ROA), %	0,78	0,80	–0,22	0,65	1,12

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Kapital yetarliligi (CAR), %	15,2	14,8	10,2	12,5	14,1
Sof foizli marja (NIM), %	4,1	4,3	3,2	3,8	4,5
Sarflar nisbati (CIR), %	52	51	68	58	47

**Manba:** ATB «Xalq banki» moliyaviy ko'rsatkichlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzildi.

2-jadvaldan ko'rinadiki, 2022-yilda NPL ulushining oshishi bankning rentabelligi va kapital ko'rsatkichlariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, ROA manfiy qiymatga tushgan, CAR 10,2 foizgacha pasaygan, CIR esa 68 foizgacha oshgan. Bu holat muammoli kreditlar faqat kredit portfeli sifati muammosi emas, balki kapital, daromadlilik, xarajatlar samaradorligi va umumiy moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi tizimli risk ekanini tasdiqlaydi.

Muammoli kreditlar shakllanishida bir nechta omillar o'zaro bog'liq holda harakat qiladi.

Kredit tahlilining yetarli emasligi qarz oluvchining real to'lov qobiliyatini noto'g'ri baholashga olib keladi; garov ta'minotining sifatsizligi undirish jarayonini qiyinlashtiradi; makroiqtisodiy beqarorlik qarz oluvchining daromadlari va pul oqimlariga bosim qiladi; monitoring sustligi esa muammo erta aniqlanishiga to'sqinlik qiladi.

### 3-jadval

#### Muammoli kreditlarning asosiy sabablari va kamaytirish choralari

Muammo omili	NPLga ta'siri	Tavsiya etilayotgan chora
Kredit tahlilining yetarli emasligi	To'lov qobiliyati noto'g'ri baholanadi	AI-skoring, cash-flow tahlili va stress-test amaliyotini kengaytirish
Garov ta'minotining zaifligi	Undirish qiymati kutilgandan past bo'ladi	Mustaqil baholash, LTV limitlari va garov reyestrini kuchaytirish
Makroiqtisodiy beqarorlik	Daromadlar pasayadi, kechikishlar ortadi	Tarmoq limitlari, ssenariy monitoringi va sektorlar bo'yicha risk xaritasi
Kredit monitoringining sustligi	Muammolar kech aniqlanadi	Real vaqt monitoring platformasi va EWS triggerlari
Ichki nazorat zaifligi	Kredit jarayonidagi xatolar ko'payadi	RCSA, risk-register, ichki audit va javobgarlik matritsasi
Portfel konsentratsiyasi	Ayrim segmentlar bo'yicha yo'qotish riski ortadi	Portfel diversifikatsiyasi va limitlar tizimini qayta ko'rib chiqish

**Manba:** ilmiy adabiyotlar va bank risk-menejmenti yondashuvlari tahlili asosida tuzildi.

### DISKUSSIYA

CAMELS modeli bo'yicha tahlil ATB «Xalq banki»da 2022-yilgi NPL o'sishi bankning barcha asosiy komponentlariga ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Capital adequacy komponentida zaxira ajratmalari va zararlar kapitalga bosim qilgan; Asset quality bo'yicha NPL ulushi juda yuqori darajaga yetgan; Management efficiency komponentida monitoring va ichki nazorat zaif nuqtalari ko'ringan; Earnings bo'yicha rentabellik pasaygan; Liquidity bo'yicha pul oqimlari

barqarorligi kuchsizlangan; Sensitivity komponentida esa makroiqtisodiy va sektorlar kesimidagi risklarga sezuvchanlik oshgan.

Basel III standartlari nuqtayi nazaridan muammoli kreditlar kapital yetarliligi, zaxiralar va likvidlik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. IFRS 9 standarti esa kredit yo'qotishlarini sodir bo'lgandan keyin emas, balki kutilayotgan yo'qotishlar modeli asosida oldindan baholashni talab qiladi. Shu jihatdan Xalq bankida ECL hisob-kitobini kredit segmentlari, qarz oluvchilar pul oqimi, garov sifati va sektor risklari bilan bog'liq holda chuqurlashtirish NPLni erta aniqlashda muhim ahamiyatga ega [3; 5].

Xorijiy amaliyotda NPL inqirozini yumshatishda aktivlarni boshqarish kompaniyalari alohida o'rin tutadi. Janubiy Koreyada KAMCO, Italiyada AMCO va GACS mexanizmi, Irlandiyada NAMA, Xitoyda esa ixtisoslashgan AMC institutlari bank balansini muammoli aktivlardan tozalash, garovlarni samarali realizatsiya qilish va banklarning yangi kreditlash imkoniyatini tiklashda muhim rol o'ynagan [4; 11]. O'zbekiston sharoitida bunday modelni to'liq ko'chirish emas, balki huquqiy, institutsional va bozor infratuzilmasiga moslashtirilgan holda bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

**4-jadval**

**Xorijiy mamlakatlarda AMC modellari: qiyosiy tahlil**

Mamlakat	Tashkilot / mexanizm	Asosiy vazifa	O'zbekiston uchun mos jihati
Janubiy Koreya	KAMCO	Muammoli aktivlarni diskont narxida sotib olish va qayta sotish	Sekuritizatsiya va markazlashgan undirish modelidan foydalanish
Italiya	AMCO + GACS	Davlat kafolati bilan muammoli aktivlar bozorini jonlantirish	Kafolat mexanizmi va ikkilamchi bozor infratuzilmasi
Irlandiya	NAMA	Yirik garovli muammoli aktivlarni alohida boshqarish	Garovni baholash va realizatsiya qilish bo'yicha markazlashgan yondashuv
Xitoy	Ixtisoslashgan AMC institutlari	Davlat banklari balansini yirik NPLlardan tozalash	Davlat ulushi yuqori banklar uchun institutsional moslashuv imkoniyati

**Manba:** ECB, World Bank va xalqaro bank amaliyoti materiallari asosida umumlashtirildi.

Raqamli risk monitoringi va erta ogohlantirish tizimi Xalq banki uchun eng tez natija berishi mumkin bo'lgan yo'nalishlardan biridir. EWS qarz oluvchining hisobvaraqlaridagi pul oqimi, to'lov intizomi, kredit tarixi, garov qiymati, sektor risklari va kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilishini doimiy kuzatadi. Bu yondashuv muammo to'liq NPLga aylanishidan oldin bankka restrukturizatsiya, qo'shimcha ta'minot, foiz grafisini moslashtirish yoki huquqiy choralarni tanlash imkonini beradi.

5-jadval

ATB «Xalq banki» uchun NPLni kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar

№	Yo'nalish	Amaliy mexanizm	Muddat	Kutilayotgan natija
1	AI asosidagi kredit skoring	Moliyaviy ko'rsatkichlar, cash-flow, kredit tarixi va sektor risklarini birlashtirgan avtomatik baholash	2025–2026	Kredit ajratish sifati oshadi, yangi NPLlar shakllanishi kamayadi
2	Real vaqt monitoringi va EWS	60/30/15 kunlik triggerlar, qarz oluvchi pul oqimi va to'lov intizomini avtomatik kuzatish	2025–2026	Muammolar erta aniqlanadi, restrukturizatsiya samaradorligi oshadi
3	IFRS 9 bo'yicha ECL modelini chuqurlashtirish	Segmentlar bo'yicha PD, LGD va EAD parametrlarini muntazam yangilash	2025–2027	Yashirin kredit yo'qotishlari oldindan baholanadi
4	RCSA va ichki auditni kuchaytirish	Risk-register, heat map, javobgarlik matritsasi va har choraklik nazorat rejasi	2025	Kredit jarayonidagi nazorat zaif nuqtalari kamayadi
5	Kredit portfelini diversifikatsiya qilish	Segmentlar, tarmoqlar va hududlar bo'yicha limitlarni qayta ko'rib chiqish	2026–2027	Konsentratsiya riski pasayadi
6	Muammoli aktivlarni boshqarish institutini rivojlantirish	Yirik NPLlarni alohida balansga chiqarish, diskont asosida sotish yoki qayta boshqarish	2027–2030	Bank balansi sog'lomlashadi va yangi kreditlash salohiyati tiklanadi

*Manba:* tahlil natijalari, Basel III/IFRS 9 yondashuvlari va xorijiy AMC tajribasi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

**XULOSA**

Tadqiqot natijalari ATB «Xalq banki»da muammoli kreditlar ulushining 2022-yilda keskin oshishi bankning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga tizimli ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi.

NPL ulushining 19,7 foizga yetishi ROAning manfiylashishi, CARning pasayishi, NIMning qisqarishi va CIRning oshishi bilan birga kuzatildi. 2023–2024-yillarda NPL ulushi 7,6 foizgacha kamaygani ijobiy natija bo'lsa-da, bank uchun barqaror va ehtiyotkor kredit siyosati nuqtayi nazaridan bu daraja hanzu yuqori hisoblanadi.

Muammoli kreditlarni kamaytirish uchun Xalq bankida kredit ajratish jarayonini AI-skoring va pul oqimi tahlili bilan boyitish, real vaqt monitoringi va erta ogohlantirish tizimini joriy etish, IFRS 9 bo'yicha ECL modelini kredit segmentlari kesimida chuqurlashtirish, RCSA hamda ichki auditni kuchaytirish, kredit portfeli konsentratsiyasini kamaytirish va muammoli aktivlarni alohida boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Ushbu choralar izchil amalga oshirilsa, bank NPL ulushini bosqichma-bosqich xalqaro amaliyotda maqbul deb qaraladigan darajaga yaqinlashtirishi, kapital va rentabellik ko'rsatkichlarini mustahkamlashi hamda kreditlash jarayonining sifatini oshirishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Akramova N.N. Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari // Moliya va bank ishi jurnali. — 2026. — № 2. — B. 59–62.
2. ATB «Xalq banki». Moliyaviy hisobotlar va asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar (2020–2024-yillar). — Toshkent, 2020–2024. — URL: <https://xb.uz>.
3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: international regulatory framework for banks. — Basel: Bank for International Settlements, 2019. — URL: <https://www.bis.org/bcbs/basel3.htm>.
4. European Central Bank. Guidance to banks on non-performing loans. — Frankfurt am Main: ECB Banking Supervision, 2017. — URL: <https://www.bankingsupervision.europa.eu>.
5. International Accounting Standards Board. IFRS 9 Financial Instruments. — London: IFRS Foundation, 2014.
6. Istamov A.I. Tijorat banklarining muammoli kreditlarini kamaytirish yo'llari // Ilm-fan xabarnomasi (Science Bulletin). — 2026. — Vol. 13, Issue 2. — B. 2671–2673.
7. Maqsudov B.A. O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish // Moliya, pul va kredit. — 2026. — № 3. — B. 82–88.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining kredit qo'yimalari va muammoli kreditlari bo'yicha statistik ma'lumotlar. — Toshkent, 2020–2024. — URL: <https://cbu.uz>.
9. Tursunov I.T. Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlik indikatorlarini xalqaro me'yorlar asosida tashkil etish // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. — 2026. — T. 6, № 5. — B. 151–159.
10. Umarov Z.A. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ichki auditini tashkil etish // Moliya, pul va kredit. — 2025. — № 5. — B. 330–335.
11. World Bank. Global Financial Development Report: Bank regulation and supervision after the global financial crisis. — Washington, DC: World Bank, 2019. — URL: <https://www.worldbank.org>.